



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



### ILM-MA'RIFAT TARAQQIYOTIDA JADIDCHILIK HARAKATLARINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK KOMPONENTLARI.

**Ro'ziqulova Sevara**

*Navoiy Davlat Universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi  
2-bosqich magistranti.*

*e-mail: [sevararoziqulova01@gmail.com](mailto:sevararoziqulova01@gmail.com)*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada ilm-ma'rifat taraqqiyotida jadidchilik harakatlarining o'rni va ahamiyati zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Xususan, jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan g'oyalari, yangi usul maktablari faoliyati hamda o'qitish metodikasidagi yangiliklar o'rganiladi. Shuningdek, jadidchilik harakatining bugungi ta'lim tizimidagi innovatsion pedagogik komponentlar bilan uyg'unligi asoslab beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *jadidchilik, komponentli yondashuv, manifest, jadid ziyolilari, darslik, shaxsning aqliy rivojlanishi.*

**Annotation.** *This article examines the role and significance of the Jadid movement in the development of education and enlightenment from the perspective of modern pedagogical approaches. In particular, it analyzes the reformist ideas of Jadid enlighteners, the activities of new-method schools, and innovations in teaching methodologies. Furthermore, the study highlights the integration of Jadid educational principles with modern pedagogical components.*

**Keywords:** *Jadidism, component approach, manifesto, Jadid intellectuals, textbook, intellectual development of the individual.*

XIX asrning so'ngi choragi va XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan jadidchilik harakati milliy ta'lim tizimining yangilanishi, ilm-ma'rifat taraqqiyoti va jamiyat ongining modernizatsiyalashuvida muhim o'rin tutgan. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan ta'limiy g'oyalar tarix, adabiyot, tarbiya, pedagogika fanlarida, qolaversa bugungi milliy pedagogika fanida alohida ilmiy-tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmoqda. Ayniqsa, jadidchilik harakatini faqat tarixiy hodisa sifatida emas, balki zamonaviy ta'lim jarayonlari bilan uzviy bog'liq pedagogik fenomen sifatida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidchilik harakati o'z mohiyatiga ko'ra ma'rifiy, ijtimoiy va madaniy islohotlar majmuasini ifodalaydi. Jadidlar ilm-ma'rifat orqali jamiyatni yangilash, shaxs tafakkurini rivojlantirish va milliy ongni shakllantirishni asosiy vazifa deb bildilar. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda jadidchilik harakatlarini o'rganish komponentli yondashuv asosida amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonining murakkab tizim ekanligini inobatga olib, uni alohida tarkibiy qismlar – komponentlar orqali tahlil qilish imkonini beradi.

Komponentli yondashuv — bu pedagogik jarayonni tashkil etuvchi asosiy tarkibiy qismlarni aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish va ta'lim samaradorligini



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



oshirishga xizmat qiluvchi metodologik yondashuvdir. Jadidchilik harakatini ilm-ma'rifat taraqqiyoti nuqtayi nazaridan o'rganishda ushbu yondashuv alohida ahamiyatga ega, chunki jadidlar faoliyati faqat bitta yo'nalish bilan cheklanmagan, balki ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, tarbiyaviy maqsadlar va ijtimoiy ongni shakllantirish kabi bir qator komponentlarni o'z ichiga olgan. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda jadicilik harakatini o'rganishda quyidagi asosiy komponentlar ajratib ko'rsatiladi:

1. Maqsadli komponent
2. Mazmuniy komponent
3. Faoliyat (jarayon) komponenti
4. Metodik komponent

**Maqsadli komponent.** Maqsadli komponent jadicilik harakatining ta'limiy va tarbiyaviy yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi. Jadid ma'rifatparvarlarining asosiy maqsadi-xalqni savodsizlikdan chiqarish, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o'zlashtirgan, mustaqil fikrlovchi, milliy ong va vatanparvarlik ruhiga ega shaxsni tarbiyalashdan iborat bo'lgan. Jumladan, Fayzulla Xo'jayev mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishdagi turg'unlikdan demokratiya va taraqqiyot yo'liga olib chiqishni o'zining asosiy maqsadi qilib qo'ydi. U Buxoroda hukum surgan turg'unlikning asosiy sababini o'sha paytda mavjud bo'lgan amir mustabidligida deb bildi. Buxoro jadidlari o'sha paytdagi mamlakatdagi mavjud siyosiy-ijtimoiy va sotsial-iqtisodiy holatni hisobga olgan holda, dastlab monarxiya boshqaruv tuzumini yo'qotish vazifasini oldinga surmasdan, balki yuqoridan islohot orqali amirlikni kapitalistik yo'lga yo'naltirishga harakat qildilar. Ular diniy usuldagi maktablarni o'rniga dunyoviy usuldagi maktablarni, bir qator erkin matbuotni yaratish, tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun biror-bir huquqiy kafolatni ta'minlash, Buxoroda yosh turkchilar na'munasi bo'yicha konstitutsiyani kiritishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishdi.<sup>92</sup> 1917-yilgacha bo'lgan vaqtda amaliy jabhada jadidlar ma'rifatparlik- yangi usul maktablarini tashkil etish ishlari bilan shug'ullanishdi. Harakatlari natijasi o'laroq 1917-yil 7-aprelda amir saroyida bo'lib o'tgan ko'p ming kishilik majlisda Amir Olimxon jadidlarni manfaatiga xizmat qiluvchi islohotlar manifestni imzolaydi va buni yosh buxoroliklar katta quvonch bilan qarshi olishdi. Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi yosh buxoroliklar 8-aprelda amir manifestini qo'llab-quvvatlab namoyish o'tkazdilar. Jadidlarning asosiy talab va vazifalari shular edi:

-turk-totlar tomonidan chiqarilgan diniy-dunyoviy adabiyotni nashr etish yo'li bilan diniy taassub bilan kurashmoq;

-eski diniy va xurofot maktablari o'rniga yevropacha yangi usulda dunyoviy maktablar ochmoq hamda ilm berishda o'rta asr sxolastik usullarini o'zgartirib, zamon taalblariga javob beraoladigan holga qo'yimoq;

-matbuotga ozroq hurriyat berish. Bu jadidlarning mafkura sohasidagi talablari edi va ma'muriyat sohasidagi talablari esa quyidagilardan iborat edi: soliq kamaytirilsin desa ham bu ochiq shakilda qo'yilmagan edi, lekin soliq ishlarini bir tartibga qo'yib bu to'g'ri rida

<sup>92</sup> Fayzulla Xo'jayev. Tanlangan asarlar. 1-tom. Toshkent, 1976, 314-bet.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



beklarning buzuq harakatlarini bitirish bosh talablari edi, hali beklar har yo‘llar bilan soliqlarni dehqonning umum hosilotning 30 foiziga dovur oshirar edi, bu albatta xalqni faqirlikka olib kelar edi.<sup>93</sup>

Zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan ushbu maqsadlar kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘unlashadi. Ya’ni, jadidlarning ta’limga oid maqsadlari bugungi kunda:

- Shaxsni aqliy jihatdan rivojlantirish;
- tanqidiy va ijodiy fikrlash;
- ijtimoiy faollik;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat kabi kompetensiyalarni shakllantirish bilan mos keladi.

Maqsadli komponentni tahlil qilish jarayonida jadidlarning pedagogik qarashlari zamonaviy ta’lim standartlari bilan qiyosiy o‘rganiladi va ularning bugungi ta’lim tizimi uchun dolzarbligi asoslab beriladi.

**Mazmuniy komponent.** Mazmuniy komponent jadidchilik harakati doirasida ilgari surilgan ta’lim mazmunini o‘z ichiga oladi. Jadidlar an’anaviy diniy ta’lim bilan cheklanib qolmasdan, dunyoviy fanlar — matematika, geografiya, tarix, tabiiyotshunoslik, ona tili va xorijiy tillarni o‘qitishga alohida e’tibor qaratganlar. Jadidlar eski usuldagi maktablarning zamonga javob bermasligi, bolalarning faqatgina Qur’on yodlash bilan cheklanishi, ilm-fan, til, matematika kabi dunyoviy fanlarning o‘rganilmasligi tufayli xalqning orqada qolayotganini ta’kidlab chiqdilar. Ular bu muammoni hal qilish uchun ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, yangi usuldagi maktablar ochish va ularga mos darsliklar yaratishni boshladilar. Islom dini asoslari saqlangan holda dunyoviy fanlarga urg‘u berilgan darsliklar yaratish orqali ular yangi avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishni maqsad qilib oldilar. Bu jarayonda ularning asosiy tayanchi matbuot, teatr va eng avvalo, maktab darsliklari bo‘ldi.<sup>94</sup> Jadid ziyolilari orasida Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudi, Abdulla Avloniy, Mirzo Sirojiddin, Sadriddin Ayniy va boshqalar darslik yozishda faol ishtirok etdilar. Ularning har biri nafaqat o‘qituvchi, balki yozuvchi, tarjimon, noshir va faol ijtimoiy arbob edi. Masalan, Munavvarqori Abdurashidxonov “Adibi avval”, “Adibi soniy” kabi o‘zbek tiliga moslashtirilgan o‘quv qo‘llanmalarni yozdi. Bu darsliklar yordamida o‘quvchilar nafaqat o‘qish va yozishni, balki axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarni ham o‘rgandilar. Mahmudxo‘ja Behbudi tomonidan yozilgan “Muallim ul-avval” esa boshlang‘ich matematika faniga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘sha davr uchun katta yangilik hisoblangan. Dastlab arab harflarida yozilgan bu kitoblar xalq orasida keng tarqaldi va zamonaviy ta’limning poydevorini yaratdi. Jadidlar tomonidan yaratilgan darsliklar quyidagi asosiy fanlarni o‘z ichiga olgan edi. Ulardan birinchisi –o‘qish va yozish. Bunda “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Alifbo” kabi kitoblar bolalarga savod o‘rgatishga mo‘ljallangan

<sup>93</sup> Fayzulla Xo‘jayev. Buxoro inqilobining tarixiga matreallar. O‘zR FA “FAN” nashriyoti, 1997, 20-bet

<sup>94</sup> Qodirova F.M. “Jadidlar tomonidan yaratilgan kitob va darsliklar” nomli maqola. “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 2-b.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



bo‘lib, unda qisqa hikoyalar, she‘rlar, axloqiy nasihatlar mavjud edi. Ikkinchi fan – matematika edi. “Muallim ul-avval” va “Hisob kitobi” kabi darsliklar orqali oddiy arifmetik amallar (qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish) o‘rgatilgan. Yana bir fan –tarix. O‘zbek xalqi tarixi, islom tarixiga oid soddalashtirilgan matnlar berilgan bo‘lib, ular o‘quvchilarda tarixiy ongni shakllantirishga xizmat qilgan. Geografiya, axloq va tarbiya kabi darslar ham muhim edi. Geografiyada Turkiston va dunyo geografiyasiga oid tushunchalar, xaritalar bilan tanishtirishga qaratilgan. Tarbiya darsida insoniy fazilatlar, ota-onaga hurmat, halollik, rostgo‘ylik haqida saboqlar kiritilgan. Shunisi ahamiyatliki, darsliklarda murakkab, noaniq tushunchalarga yo‘l qo‘yilmay, o‘quvchilarning yosh darajasiga mos ravishda soddalashtirilgan matnlar berilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ayta olamizki bugungi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda mazmuniy komponent quyidagi jihatlar orqali tahlil qilinadi:

- fanlararo integratsiya;
- ta‘lim mazmunining hayot bilan bog‘liqligi;
- o‘quv materiallarining tushunariligi va amaliy yo‘naltirilganligi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi.

Jadidlar tomonidan ishlab chiqilgan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar mazmuni bugungi kompetensiyaga asoslangan ta‘lim tamoyillariga yaqinligi bilan ajralib turadi. Bu esa jadidchilik harakatining zamonaviy pedagogik ahamiyatini yanada oshiradi.

**Faoliyat (jarayon) komponenti.** Faoliyat komponenti jadidchilik harakatlarini o‘rganishda ta‘lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quv jarayonini amaliy faoliyat asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Jadid ma‘rifatparvarlari o‘z faoliyatida o‘quvchini faqat tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki bilimlarni mustaqil egallovchi shaxs sifatida ko‘rganlar. Ushbu g‘oya zamonaviy pedagogikada faoliyatga yo‘naltirilgan ta‘lim konsepsiyasi bilan hamohangdir. Faoliyat komponentini amalga oshirish jarayonida talabalar jadidchilik harakatiga oid manbalarni tahlil qilish, tarixiy-pedagogik faktlarni qiyoslash, muammoli vaziyatlar asosida xulosalar chiqarishga jalb etiladi. Bu jarayonda munozara, loyiha faoliyati, keys-stadiy va tadqiqot topshiriqlaridan foydalanish samarali natija beradi. Natijada o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalari shakllanadi. Buni biz jadidlar yaratgan darsliklar o‘z metodikasi jihatidan ham o‘z davridan ilgari ketganligida ko‘rishimiz mumkin. Avvalo, ular yod olishga emas, tushunishga asoslangan ta‘lim usulini ilgari surdilar. O‘quvchini faol fikrlashga, savollar berishga, mulohaza yuritishga undadilar. Darsliklarda savol-javob, hikoya, she‘r kabi ko‘rinishlarga keng o‘rin berildi. O‘qituvchi uchun metodik ko‘rsatmalar berilib, dars jarayoni qanday tashkil etilishi ko‘rsatilgan. Bu jihatlar o‘sha davrdagi an’anaviy ta‘lim tizimidan keskin farq qilardi va bolalarda erkin fikrlash, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirardi.

**Metodik komponent.** Metodik komponent jadidchilik harakatlarini o‘rganishda qo‘llaniladigan ta‘lim metodlari, shakllari va vositalarini qamrab oladi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan yangi usul maktablari, fonetik o‘qitish, ko‘rgazmali vositalardan foydalanish



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



bugungi interfaol ta'lim metodlarining dastlabki ko'rinishlari sifatida baholanadi. Bu jarayon qanday ko'rinishda bo'lganligi bilish maqsadida Turkistondagi jadidlar harakatigacha bo'lgan davrdagi ta'lim tizimi va shakli hamda jadidlar davridagisi bilan qiyoslab ko'rib chiqamiz.

1900-yillardan 1916-yil o'rtalariga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oluvchi o'zbek ma'rifatchiligining ikkinchi bosqichi "Jadidchilik harakati" deb yuritiladi. Ma'rifatparvarlikning mohiyati ham o'zgardi. Uning mohiyati o'zgarishi, ma'rifatparvarlik g'oyasining Turkiyaga, tatar va ozarboyjon fikriy dunyosiga ergashish orqali namoyon bo'ldi. Ular orqali esa g'arbiy Ovrupo ma'rifatchiligidan ham xabardor bo'ldi.<sup>95</sup>

Ismoilbek G'aspirali birinchi yangi jadid maktabning qanday bo'lishi kerakligini bor ko'rinishi bilan ifodalaydi. Rioya qilinishi kerak bo'lgan talablar, o'qitish qoidalari haqida ko'rsatmalar beradi. U dastlab o'qitish uchun dasrliklar yaratdi. Yangi usul maktablarida quyidagilarga rioya qilinishi lozim edi: sinfda (maktabda) bolalar soni o'ttiztadan oshmasin; bolalarni faqat ikki daf'a - yoz va qish boshlaridagina qabul qilish mumkin; har qabul necha bo'lishidan qat'i nazar bir sinf bo'lsin; har bir muallimda ko'pi bilan 3-4 sinf bo'lsin; agar maktab uch sinfdan iborat bo'lsa, darslar ketma-ket, ma'lum uyg'unlikda qo'yilmog'i lozim; 7-9 yoshlardagi bola 7-8 soat uzluksiz o'qiy olmaydi. Uning uchun 5 soat kifoya. Har darsdan so'ng 10 daqiqa tanaffus lozim; juma va bayram kunlari dam olinadi; o'n oy o'qishdan so'ng yozning issiq kunlarida ta'til bo'lishi maqsadga muvofiq; dars zeriktirmasligi lozim. Besh soatda besh soat turli fandan dars beqmoq og'irdir, lekin besh soat yolg'iz bir dars ila o'rganmoq zehnni buzar; shogirdlari urmoqqa, so'kmoqa hojat yo'qdir; har hafta nihoyasida shogirdga haftalik tazkira beriladi".<sup>96</sup>

**Xulosa.** Ilm-ma'rifat taraqqiyotida jadidchilik harakatlarini o'rganish zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada jadidchilik harakatlarini o'rganishning zamonaviy komponentlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, jadidchilik harakatlarini o'rganish jarayonida kognitiv, aksiologik, faoliyatga yo'naltirilgan va reflektiv-kommunikativ komponentlarning uyg'unligi ta'lim samaradorligini oshiradi. Ushbu komponentlarga mos ravishda belgilangan bilimlilik, qadriyatli munosabat, amaliy faoliyat va reflektiv baholash mezonlari jadidlar merosini chuqur va samarali o'zlashtirish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Fayzulla Xo'jayev. Tanlangan asarlar. 1-tom. Toshkent, 1976, 314-bet.
2. Fayzulla Xo'jayev. Buxoro inqilobining tarixiga matreallar. O'zR FA "FAN" nashriyoti, 1997, 20-bet

<sup>95</sup> Temirov R.I. Turkiston jadidchilik maktablari o'qitish tizimi. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №5(1). B.227-233.

<sup>96</sup> I.Gaspirali. Hayot Mamot masalalari (Tanlangan asarlar). Toshkent. "Ma'naviyat", 2006.130-bet



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



3. Qodirova F.M. “Jadidlar tomonidan yaratilgan kitob va darsliklar” nomli maqola. “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 2-b.

4. I.Gaspirali. Hayot Mamot masalalari (Tanlangan asarlar). Toshkent. “Ma’naviyat”, 2006. 130-bet

